



**XALQ AMALIY SAN'ATI KASHTACHILIKNI
RIVOJLANTIRIB YOSHLARGA HUNAR O'RGATISH VA
BANDLIGINI TAMINLASH**

Dehqonova Muhlis Sobirjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Sport va chaqiriqqacha xarbiy ta'lim fakulteti

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi

muhlisadehqonova@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7869881>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2023

Accepted: 26th April 2023

Online: 27th April 2023

KEY WORDS

*Hunarmandchilik, kashtachilik,
xalq amaliy san'ati,
tadbirkorlik, besh tashabbus,
eksport.*

ABSTRACT

*Bu maqola bizning milliy hunarmandchiligimiz ,
kashtachilik san'atini rivojlantirish, xalq amaliy san'atini
takomillashtirish, "ustoz-shogird" an'analari asosida
yoshlarga hunar o'rgatish va bandligini ta'minlash,
kashtachilik mahsulotlarini jahon bozoriga to'g'ridan-
to'g'ri olib chiqishdagi amalga oshirilayotgan islohotlar
haqida batafsil fikrlar bayon etilgan.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy hunarmandchiligimizni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" qaror va farmonlari qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrda "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish" to'g'risidagi qarori bilan Qo'qon shahrida har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladigan festivalga asos solingan. Jahon hunarmandlar kengashining sobiq Prezidenti Rozi Grinlis Qo'qon shahriga "Jahon hunarmandlar shahri" degan yuksak unvon bergan .

Bundan ko'rinib turadiki milliy hunarmandchiligimiz, xalq amaliy san'atiga katta e'tibor qaratilmoqda. Qo'l mehnatlari bilan yasalgan buyum va mahsulotlarga bo'lgan talab yuqori baxolanadi. Xalq amaliy san'ati bo'lgan, kashtachilikni yanada rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida usta hunarmandlar, shogirdlar soni tobora ko'payib bormoqda. Shu bilan birga bu sohada bir qancha kamchiliklar borligini e'tirof etgan holda kashtachilik mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga to'g'ridan to'g'ri chiqarishni o'rgatish, ish o'rinlari yetishmasligi tufayli iqtisodiyotimizga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarga e'tibor qaratishimiz zarur. Yoshlarni bandligini taminlash va ularga ish o'rinlarini yaratish chora tadbirlarini ko'rish haqida tanishib chiqamiz.

ASOSIY QISM

Buyuk mutafakkir Bahovuddin Naqishband bobomizning "Hunar shunday tulporki, ungan mingan kishi albatta hurmat e'tibor topgay va saodatga yetgay" degan hikmatli so'zlariga amal qilgan holda, yoshlarga berilayotgan imtiyozlardan unumli foydalanish, hunar o'rganish, kasb egallash, biz yaratayotgan mahsulotlarni dunyoga tanitishni oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz kerak. Hozirgi paytda kashtachilik loyihalarini amalga oshirayotganlarga



imtiyozli kreditlar, naqd pul mablag'larini olish va subdsiyalar ajratish imkoniyatlari taqdim etilmoqda. Bulardan to'g'ri foydalanib kichik bizneslarni, oilaviy tadbirkorliklarni yo'lga qo'ysa bo'ladi. Bugungi kunda yoshlarimizni bu imkoniyatlardan keng foydalanishga targ'ib qilishimiz kerak, Milliy kashtachiligimiz mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqishda doimiy amaliy yordam ko'rsatish, ularni qo'llab quvvatlash har tomonlama yordam berish kerak. Xozirda kashtachilik, zardo'stlik, kulolchilik, zargarlik yana bir qancha milliy hunarmandchiligimiz turlari maxsus tashkilot "Hunarmand" Respublika uyishmasiga birlashtirilgan.

Sh.M.Mirziyoyev "Mamlakatimizda qadimiy va boy tariximiz, milliy o'zligimiz, betakror qadriyat va an'alarimiz timsoli bo'lgan xalq amaliy san'atini rivojlantirish" hunarmandlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish va shu asosda O'zbekistonning bu sohadagi ulkan salohiyatini va imkoniyatlarini dunyoga namoyon etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kashtachilik xalq hunarmandchiligi xalq amaliy bezak san'ati buyumlari orasida yuksak badiiy saviyada katta ahamiyatga ega. Hunarmandchilikning uyg'onish davrigacha uy hunari shaklida, keyin xalq-badiiy hunarmandchiligi tariqasida shakllandi. Kashtachilikning eng qadimgi namunalarining aksariyati XIX asr boshiga mansub. Bu davrlarda kashtachilikning Buxoro, Nurota, Shahrisabz, Samarqand, Toshkent, Farg'ona kabi yetakchi markazlari bo'lgan. An'anaviy kashtachilikning asosiy buyumlari o'sha paytlarda quyidagilar-so'zana, joypush, oq palak, zardevor, yostiqp'o'sh, lo'la bolish, bo'g'joma, joynamoz, oyna xalta va boshqalar bo'lgan. O'zbek milliy kashtado'zligi xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan hisoblanadi. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balkim chet ellarda ham shuhrat qozongan. Inson qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy mamlakatlarda xam mashhur.

O'zimizning Farg'ona vodiysida, Qo'qon shaharlarida ko'p xonadonlarda va amaliy san'at muzeylarida qo'l kashtachiligi namunalarini uchratishimiz mumkun. Hozirgi paytta ham buyumlar o'ziga xos go'zalligi, chiroyli bezaklari, rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. O'zbek kashtachiligi boshqa xalqlar kashtachiligini ham o'zida nomoyon qiladi. Kashtachilikda har bir millatning o'ziga xos qo'llaydigan naqshlari bo'ladi.

Hozirgi paytta yoshlarni umum ta'lim maktablarida ham amaliy san'at turlarining to'garaklarda o'rgatilishiga katta e'tibor qaratish, ayniqsa "Mohir qo'llar" to'garaklarida o'zbek milliy kashtalarimizning qizlarimizga o'rgatilishi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Besh tashabbus"ning birinchi tashabbusi bo'lgan "Yoshlarni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi". To'garak mashg'ulotlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni xalq amaliy san'ati namunalari bilan nazariy va amaliy jihatdan tanishtirishdir.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish bo'yicha "Besh muhim tashabbus" tashkil etilgan. Bulardan beshinchi tashabbus "Xotin qizlarni ish bilan taminlash" masalalarini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatining 2020-yil 20-noyabrdagi "Xotin qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar" to'g'risida qarori joriy qilingan. Bugungi kunga kelib O'zbekiston



Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi a’zolarining 46 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Tadbirkor ayollarni ko’proq rag’batlantirish, nufuzli xalqaro ko’rgazmalarga, festivallarga, ko’rik tanlovlarga jalb etib faxriy unvonlar berib ularni shijoatlarini yanada oshirish kerak. Hozirgi kunda boquvchisini yo’qotgan, yosh bolali, temir daftarda turuvchi, ishsiz ayol va xotin-qizlarni bandligini taminlash, kambag’allikdan qutilish, oilaviy tadbirkorlikni yo’lga qo’yish, sifatli kashtachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, uni jahon bozorida o’z-o’rnini topishi, mahsulotlar eksportini kengaytirish va o’zlarining kichik bizneslarini yo’lga qo’yishga yordam berish chora tadbirlari va ularga chuntirish ishlari olib borilishi kerak.

Ayollarimizga tadbirkorlikka juda katta sharoitlar yaratilgan. Momolarimizdan qolgan milliy kashtachilikni rivojlantirish maqsadida ko’plab ayol va qizlar jalb qilinmoqda. Hozirda tayyor kashtachilik mahsulotlari Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg’ona shaharlarida eksport qilinadi. Shuni to’g’ridan-to’g’ri eksport qilishni yo’lga qo’yish kerak. Barcha viloyatlardan keladigan kashtachilik mahsulotlariga katta-katta ko’rgazma zallari, galareyalar, pavilonlar, bozor va yarmarkalar rastalarida namoyish qilish, sotish uchun joylar, ularni internet sahifalarida reklamalar qilish marketinga e’tibor qaratish, ularni veb sahifalarga joylashga ko’maklashish ularni biznesini yanada takomillashtirishga yordam beradi. Kashtachilik bilan shug’illanayotgan tadbirkorlarimiz minglab va undan yuqori ayol va qizlarimizni ish bilan ta’minlamoqda.

“Nur so’zana” korxonasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorda ehtiyoj yildan yilga oshib bormoqda. Bunday korxonalar har bir viloyat shahar va qishloqlarda bo’lishligi iqtisodiy tarafdin foyda keltiradi va O’zbekiston reytingini ko’tarilishiga sabab bo’ladi. Ayollarga ishlashi uchun sifatli sharoitlari bor sexlar, korxonalar ularni qurish uchun davlat tarafidan yer va mablag’lar ajratilishi biznesni yanada rivojlanishiga yordam beradi. Turkiyada sayyohlar uchun jahon bozori borligi tufayli shu davlatga ko’proq eksport qilinadi. Xozirda YUNESKO raxnomoligida o’tkaziladigan festivallarda jahon hunarmandlari bir joyga to’planishadi. O’zbekistondan ham “Hunarmand” uyushmasi azolari tashrif buyurishadi. Kashtachilik mahsulotlarimizni o’sha yerda o’tkazilayotgan ko’rgazma va yarmarkalarda taqdimot qilishga ko’maklashish kerak.

Tojikiston, Qirg’iziston, Turkmaniston, Ozarbijon, Belarussiya, Armaniston, Xitoy, Malayziya, Afrika, Amerika, Hindiston, Rossiya, Turkiya, Iroq, Arabiston va boshqa ko’pgina davlatlar madaniyat vazirlari, san’at va hunarmandchilik uyushma vakillari, karparatsiya direktorlari O’zbekiston ham bu nufuzli festivallarda tashabbus ko’rsatib faxrli o’rinlarni egallamoda. Kashtachilik mahsulotlariga bo’lgan buyurtmalar ko’paymoqda. Kashtachilik mahsulotlari uchun ishlatiladigan eng yuqori sifat darajasidagi iplar, matolar, kerakli mahsulotlar yetkazib berish davlat tarafidan taminlanadi. Kashtado’zlik san’ati orqasidan dunyoga tanilmoqdamiz va dunyo ko’rmoqdamiz.

XULOSA.

Respublikamizda kashtachilik sohasini yanada rivojlantirish, uning ichki va tashqi jahon bozorlarida o’z o’rnini topishi, ko’plab, ayol va qizlarni jalb etish, bandligini ta’minlash, O’rta Osiyoda yetakchi ishlab chiqarish sohalaridan biriga aylantirishdan iborat. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad milliy va madaniy hayotimizni har tomonlama yoritish, o’zbek milliy qadriyatlarimizni dunyoga tanitishdir. Xalq amaliy san’atimiz dunyodagi har bir xalqning



xayotida, uning turmish tarzida va tarixida alohida o'rin tutadi. Bizning milliy kashtachiligimiz tabiat bilan uyg'un bo'lib insonga zavq, jo'shqinlik va ilhom bag'ishlaydi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son qarori
2. "O'zbek xalq amaliy san'ati" o'quv qo'llanma 2019-yil 90-betlar
3. Texnologiya 5- sinf maktab darsligi 2020-yil 184-betlar.
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning I Xalqaro hunarmandchilik festivalida so'zlagan nutqidan.
5. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2020-yil 20-noyabardagi qarori.